



THE INFLUENCE OF GREEK PHILOSOPHY AND NEOPLATONISM ON THE FORMATION OF SUFI DOCTRINE

Salimjon Evatov

Associate Professor, Fergana State University

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Fergana, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Sufism, Greek philosophy, Neoplatonism, wahdat al-wujud, emanation, ontology, epistemology, mysticism, ma'rifa.

Received: 11.02.26

Accepted: 12.02.26

Published: 13.02.26

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the influence of Greek philosophy, particularly Neoplatonism, on the formation of Sufi doctrine. The study examines the emergence of Sufism as an ascetic movement and its subsequent transformation into a comprehensive mystical and philosophical system characterized by ontological and epistemological perspectives. Special attention is paid to the translation movement through which Greek philosophical heritage entered the Islamic world and its impact on Sufi thought. The Neoplatonic concepts of emanation, absolute being, spiritual perfection, and intuitive knowledge are comparatively analyzed alongside key Sufi notions such as wahdat al-wujud, tajalli, and ma'rifa. The article critically challenges reductionist interpretations that view Sufism merely as a product of external influences and argues for understanding it as a complex intellectual tradition rooted in Islamic and mystical foundations.

TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISHIDA YUNON FALSAFASI VA NEOPLATONIZM TA'SIRI

Salimjon Evatov

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: tasavvuf, yunon falsafasi, neoplatonizm, vahdat ul-vujud, emanatsiya, ontologiya, gnoseologiya, irfon, maʼrifat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf taʼlimotining shakllanish jarayonida yunon falsafasi, xususan neoplatonizm gʻoyalarining taʼsiri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tasavvufning dastlabki zohidlik harakati sifatida vujudga kelishi, keyinchalik esa ontologik va gnoseologik qarashlarga ega boʻlgan keng qamrovli irfoniy-falsafiy taʼlimotga aylanishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, yunon falsafasining islom olamiga kirib kelishi, tarjima harakati va uning tasavvuf tafakkuriga koʻrsatgan taʼsiri tahlil etiladi. Neoplatonizmning emanatsiya, mutlaq borliq, ruhiy kamolot va bilishning intuitiv shakllari haqidagi qarashlari tasavvufdagi vahdat ul-vujud, tajalli va maʼrifat tushunchalari bilan qiyosiy jihatdan oʻrganiladi. Maqolada tasavvufni faqat tashqi taʼsirlar mahsuli sifatida talqin qilish biryoqlamaligi tanqid qilinib, uni islomiy va irfoniy anʼanalar doirasida shakllangan murakkab falsafiy hodisa sifatida baholash zarurligi asoslanadi.

ВЛИЯНИЕ ГРЕЧЕСКОЙ ФИЛОСОФИИ И НЕОПЛАТОНИЗМА НА ФОРМИРОВАНИЕ СУФИЙСКОГО УЧЕНИЯ

Салимжон Эватов

Доцент Ферганского государственного университета

Доктор философии (PhD) по философским наукам

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: суфизм, греческая философия, неоплатонизм, вахдат аль-вуджуд, эманация, онтология, гносеология, ирфан, мистицизм.

Аннотация: В статье проводится теоретико-философский анализ влияния греческой философии, в частности неоплатонизма, на процесс формирования суфийского учения. Рассматривается эволюция суфизма от первоначального аскетического движения к целостной ирфано-философской системе, обладающей онтологическими и гносеологическими основаниями. Особое внимание уделяется переводческому движению и проникновению античного философского наследия в исламский мир, а также его воздействию на суфийскую мысль. Основные идеи неоплатонизма — эманация, абсолютное бытие, духовное совершенствование и интуитивное

познание — сопоставляются с суфийскими концепциями вахдат аль-вуджуд, таджалли и ма'рифат. Подчеркивается необходимость отказа от односторонних интерпретаций суфизма как результата исключительно внешних влияний и обосновывается его рассмотрение как сложного интеллектуального феномена, сформированного в рамках исламской духовной традиции.

Kirish. Tasavvuf VIII asr o'rtalaridan boshlab bir necha diniy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy-aqidaviy sabablar tufayli vujudga kelgan hodisa bo'lib, dastlab zohidlik harakati sifatida shakllangan tasavvuf keyinchalik kengqamrovli ijtimoiy hodisaga aylangan edi. Ollohdan qo'rqish, taqvo asosiy g'oyalari bo'lgan so'fiylarda endi ontologik va gnesologik g'oyalar shakllanayotgan edi. An'anaviy islom tafakkurida metafizik hodisalar haqida fikr yuritish biroz chegaralanganligi ko'pgina ajnabiy tadqiqotchilarning bu ta'limotlar ildizlarini birmuncha hurfikrlikka yo'l beradigan boshqa e'tiqod va manbalardan qidirishlari uchun turtki bo'lgan. Bu qarashlarda ba'zan chegaradan chiqish, mutaassiblik, mavzu mohiyatini chuqur tushunmaslik natijasida kelib chiqqan xulosalariga ham duch kelamiz. Shuning uchun yangi davr tadqiqotlaridan bu masalalarda chuqur izlanish va qiyosiy tahlillar asosida mavzuni to'liq yoritish talab qilinadi. Sharqshunoslar tomonidan tasavvuf tarixi va uning g'oyalari haqida bildirilgan xulosalar ko'pincha o'z mamlakatlari yoki ilmiy-madaniy muhitlarida ustun bo'lgan yondashuvlardan kelib chiqqanligi ayon bo'ladi. Lekin bu fundamental tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini e'tirof etgan holda ularning fikrlarini o'rganishga, tasavvuf ta'limotlarining tub negizlarini topish, ularni qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratga aylanmoqda.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqotda tasavvuf ta'limotining shakllanish jarayonida yunon falsafasi va neoplatonizm g'oyalarining ta'sirini aniqlash hamda tahlil qilish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Shu bois, tadqiqot jarayonida tarixiy-falsafiy, qiyosiy-tahliliy va manbashunoslik metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy materiallari sifatida tasavvuf tarixiga oid klassik va zamonaviy ilmiy manbalar, jumladan, musulmon mutasavvif va faylasuflarining asarlari (al-G'azzoliy, Kalobodiy, Junayd Bag'dodiy, Mansur al-Halloj, Sahl at-Tustariy va boshqalar), shuningdek, yunon falsafasi va neoplatonizm vakillari — Platon, Aristotel, Plotin, Porfiriylar qarashlarini yorituvchi asarlar tanlab olindi. Bundan tashqari, G'arb va Sharq sharqshunoslari tomonidan olib borilgan fundamental tadqiqotlar, xususan, J. S. Trimmingem, Adam Mets, Majid Faxriy, Seyyed Hossein Nasr kabi olimlarning ilmiy ishlari ham tahlil doirasiga kiritildi.

Tadqiqotda tarixiylik va izchillik tamoyiliga amal qilinib, tasavvufning VIII asrdan boshlab shakllanish bosqichlari, tarjima harakati, xalifalik hududlarining kengayishi va turli madaniy-falsafiy an'analarning o'zaro ta'siri tarixiy kontekstda ko'rib chiqildi. Bu yondashuv tasavvuf g'oyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishida tashqi va ichki omillarni farqlash imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali yunon falsafasiga xos ontologik va gnoceologik qarashlar (mutlaq borliq, emanatsiya, substansiya, intuitiv bilish) bilan tasavvuf ta'limotidagi vahdat ul-vujud, tajalli, ma'rifat, sukr va sahva kabi tushunchalar o'zaro solishtirildi. Bu metod tasavvufning faqat tashqi falsafiy ta'sirlar mahsuli emas, balki islomiy-irfoniy an'analardan asosida shakllangan murakkab ta'limot ekanini asoslashga xizmat qildi.

Shuningdek, matnshunoslik va kontseptual tahlil usullaridan foydalanilib, tasavvufiy va falsafiy terminlarning mazmuni, ularning tarixiy taraqqiyoti va ma'no qatlamlari o'rganildi. Ayniqsa, "tajalli", "emanatsiya", "substansiya", "vahdat", "ruh", "ma'rifat" kabi tushunchalarning yunon falsafasi va islom tasavvufidagi talqinlari alohida tahlil qilindi.

Tadqiqotda tanqidiy yondashuv ham qo'llanilib, ayrim G'arb sharqshunoslarining tasavvuf genezisiga oid beryoqlama yoki haddan tashqari reduksionistik qarashlari ilmiy asosda qayta ko'rib chiqildi. Bu orqali mavzuga nisbatan muvozanatli va xolis ilmiy xulosa chiqarish maqsad qilindi.

Muhokama va natijalar. Tasavvufning shakllanish ildizlari bo'yicha izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar turli qarashlarni ilgari suradilar. Masalan, arab, turk va yangi davr o'zbek tadqiqotchilaridan iborat birinchi guruh[1] tadqiqotchilari tasavvufni faqat islomiy negizlardan kelib chiqqanligini ta'kidlashadi. G'arb sharqshunoslari va eronlik olimlardan iborat ikkinchi guruh[2] tadqiqotchilari esa tasavvuf genezisida boshqa e'tiqodlar – buddaviylik, zardushtiylik, yahudiylik, nasroniylik, monaviylik dinlari va yunon falsafasiga oid ta'limotlar ildizlarini ham ko'rishadi[3]. Ingliz sharqshunosi J. S. Trimingham tasavvufni umuman islom diniga bog'liq emas deb hisoblab, "Tasavvuf musulmon manbalaridan deyarli hech narsa olmasdan, islom ichida rivojlandi, shu bilan birga, sharqiy xristianlikning asketik va mistik amaliyoti hamda falsafasini o'zlashtirdi",[4] deb yozadi. Shveytsariyalik sharqshunos Adam Mets ham tasavvufni nasroniylik gnostitsizmi ta'sirida paydo bo'lgan, deb xulosa chiqaradi.

Ba'zi tadqiqotchilar genezis masalasida o'rta yo'lni tutishgan. Eronlik tadqiqotchi R. Birinjkor shular jumlasidan bo'lib, "tasavvuf asosiy tushunchalari islomdan olgan, ammo nazariy va amaliy jihatlari uchun aniq tizim va qoidalar ishlab chiqish asnosida boshqa xalqlarning mistik va falsafiy qarashlaridan ham foydalangan"[5], degan fikrni bildiradi.

VIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, yunon falsafasiga oid asarlarning tarjima qilinishi ziyoli qatlam dunyoqarashining butunlay o'zgarishiga olib kelgan. Bu o'zgarishlar asosan ilmiy sohalarda ko'zga tashlansa ham, lekin falsafiy qarashlarga ham ta'sir ko'rsatganini inkor qilib bo'lmaydi. Xususan, tasavvufiy-falsafiy ta'limotlardagi ta'sir, birinchidan, qadimiy adabiyotlarni

tarjimasi orqali bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan, falsafiy-aqidaviy jamoalarning keng hududlarga yoyilganligi bilan ifodalanadi. Xalifalik hududlarining kengayishi natijasida turli xalqlar, e’tiqod vakillari ham islom dinini qabul qila boshlagan.

Yunon falsafasiga oid ilmlarni G‘azzoliy olti turga: riyozat, mantiq, tabiiy ilmlar, siyosat, ilohiyot va axloq ilmlariga ajratdi. Tasavvuf ta’limotlarida yunon falsafasining axloq va ilohiyot ilmiga oid unsurlar uchraydi. G‘azzoliy axloq ilmiga oid g‘oyalarni islomga kamdan kam holatlarda qarama-qarshi keladigan yo‘nalish sifatida baholagan bo‘lsa, ilohiyot ilmida juda ko‘p faylasuflar adashganini, shuning uchun ular orasida bu ilm haqida ixtiloflar ko‘payib ketganini[6] ta’kidlaydi. Axloq ilmi har bir zamon va makon uchun mushtarak meyorlar majmui bo‘lsa, ilohiyot ilmiga oid g‘oyalarning tasavvuf ta’limotlarida uchrashi bahsli mavzulardandir. Chunki islomda metafizik qarashlar uchun tayyor ishonchli manba mavjud edi. Barcha samoviy dinlardagi aqidaga oid ma’lumotlar g‘ayb olami, ya’ni insonning aql zakovat imkoniyati doirasidan tashqari bo‘lgan ilmlar hisoblanadi. Yunon faylasuflari tabiiy ilmlardagi his qilish mumkin bo‘lgan muqaddima va asoslar asosida ilohiyot ilmida ham narsalar va hodisalarning haqiqatiga yetish mumkinligiga ishonдилar. Natijada shariat ilmlaridan hisoblangan g‘ayb ishlari to‘g‘risida taxminlarga asoslangan noto‘g‘ri tasavvurlarni taqdim qildilar. Yunon falsafasiga oid asarlar bilan tanishgan musulmonlar undagi g‘oyalar haqida bahs- munozaralarga kirishib ketdilar. Tasavvufiy asarlarga diniy-falsafiy va metafizikaga oid qarashlar kiritila boshlandi. Narsa va hodisalarning mohiyati, Ollohning zoti va sifatleri haqidagi ontologik va gneseologik qarashlarni so‘fiylar o‘z ichki tajribalariga suyanib izohlay boshladilar. Tasavvufni tadqiq qiluvchi mutasavviflar tomonidan keyinchalik «sunniy tasavvuf» va “falsafiy tasavvuf” tarzida taqsimlab talqin qilinganligini kuzatish mumkin. Tasavvufni bu tarzda bo‘lish va unda sof islomiy g‘oyalardan tashqari boshqa ta’limotlarning ham ta’siri borligini rad etish, bu ta’limotlardagi inson o‘z-o‘zini va borliqni, ruh va uning yaratuvchisini, foniylk va boqiylikning mohiyatini tushunib yetishga bo‘lgan so‘fiylarning intilishlarini nazarga ilmaslikka olib kelish mumkin. Unga insoniy irfoniy-falsafiy ta’limot sifatida qarash orqali tarixiy adolat tamoyillariga amal qilgan bo‘lamiz.

Yunon faylasuflari orasida irfonga xos qarashlar shakllana boshlagan. Masalan, Platonning fikricha butun borliq “g‘oyalar dunyosi”, ya’ni haqiqiy borliqning soyasi bo‘lib, u fazo va vaqtga nisbatan abadiy va o‘zgarmasdir. Uni faqat sof tafakkur egalarigina anglashi mumkin, degan g‘oyani ilgari suradi.

Ummaviylar bera olmagan asosiy narsa, bu – yunon falsafasining arab tiliga tarjima qilinib, o‘rganilmaganligi edi. Miloddan oldingi davrda yashagan Platon, Aristotel kabi yunon faylasuflarining fikr va g‘oyalari hamda asarlari, shuningdek, miloddan keyingi davrda Rim imperiyasida yashagan faylasuflardan ta’sirlangan Plotin, Porfiriy kabi neoplatonizm[7] tarafdorlarining asarlari arab tiliga izchil ravishda o‘girila boshlandi. Bu ish ikki bosqichda amalga

oshirilar edi. Dastlab suryoniy tiliga, so'ngra suryoniydan arab tiliga tarjima qilinardi. Suryoniy tili milodiy VIII asr oxirlariga borib, arab tili tomonidan siqib chiqarilishiga qadar Yaman va Yaqin Sharqning asosiy adabiy tili bo'lib, oromiy tilning davomchisi sifatida somiy tillar oilasiga mansubdir[8]. Shu jihatdan suryoniy tili arab tili bilan qarindosh til hisoblanadi. Bu esa, yunon madaniyati va ilmining islom olamiga, xususan, Markaziy Osiyoga kirib kelishiga va keng tarqalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Butun yunon madaniy merosini Suriya xristianlari tomonidan arab sivilizatsiyasiga olib kirilishi islomiy hududlardagi ilmiy-falsafiy tafakkur va dunyoqarashga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvuf tariqatlari va tasavvufiy allomalarning ta'limotlarida ham yunon falsafasining ta'siri sezilib turadi.

X-XI asrlarda kalom va yunon falsafasining natijalarini qorishtirishga intilish mavjud edi. Majid Faxriyning xulosalariga ko'ra, islom falsafasiga Arastu qarashlarini olib kirgan va Sharqda "Birinchii faylasuf" deb atalgan al-Kindiy hamda Aflotun g'oyalarini Sharq dunyoqarashi bilan bog'lagan, uyg'unlashtira olgan ar-Roziylar bo'lib, ularning tasavvufiy-falsafiy ilmi keyingi davr arab-musulmon tafakkuriga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan[10]. Ikkinchi tomondan, bu ilmiy merosni islom Yaqin Sharqida o'rganish va uning keng yoyilishi natijasida ontologik va gneseologik masalalarni turlicha talqin etishga intilish, ko'pgina oqimlarni yuzaga keltirdi. Masalan, mu'taziliylar ta'limoti va uning turli yo'nalishlarining vujudga kelishi hamda ularni tanqid etish jarayonida paydo bo'lgan fikrlarni tizimga solish zaruriyatga aylandi.

Tasavvufdagi ko'pgina masalalar yunon falsafasida ham mavjud edi. Ularning dastlab yuzaga chiqishi taqdir masalasi bilan bog'liq bo'ldi. Turk olimi Majid Fahriyning fikricha, taqdir masalasi islom falsafasida ko'plab tortishuvlarni keltirib chiqargani bejiz emas. Tasavvuf falsafasidagi taqdir masalasiga yunon falsafasi ta'sir ko'rsatdi va musulmon falsafasida turli oqimlarning shakllanishiga sabab bo'lgan.

Neoplatonizm milodiy III-V asrlarda rivojlangan so'nggi antik falsafa bo'lib, uning asoschisi Plotin Aflotun va Arastu g'oyalarini Sharq falsafasi bilan birlashtirdi. Uning ta'limotida mistik ruh kuchli edi. Plotin kosmologiyasi bo'yicha butun borliqning asli va manbai bitta, barcha narsalar birinchi manbadan sizib chiqadi va unga qaytadi.

Plotinning fikricha, mavjudlikning asosini hissiyotdan, aqldan ustun turuvchi g'ayritabiiy ilohiy tamoyil tashkil etadi. Bu tamoyilni u mutlaq borliq deb ataydi va uni aql orqali bilish mumkin emas, uni faqat qalban bilish mumkin, deb tushuntiradi. Plotinning yuqoridagi qarashlari tasavvufning barcha davrlari va tariqatlariga xos tushunchadir. Tasavvuf ta'limoti ham aqldan ustun ilm bo'lib, ko'z bilan ko'rinadigan olamdan tashqari, g'ayb olamidan ham bahs yuritadi. Yunon falsafasida bu g'oya hurfikrlikka asoslangan bo'lsa, tasavvufda islom an'analari doirasida ifodalangan. Yunon falsafasi ta'sirida shakllangan "Vahdat-ul vujud" ta'limoti irfoniy asoslarga ham ega. Unga ko'ra, butun borliq bir butun vujud hisoblanadi. Tasavvuf falsafasida bu ta'limot

o'ziga xos tarzda ifodalangan. Bu ta'limotning sharxiga chuqur kirishmaymiz. Asosan Markaziy Osiyo tasavvufiy-falsafiy ta'limotlarida boshqa manbalardan kirib kelgan g'oyalarning mo'tadil an'analarga muvofiq tarzda ifodalangani ahamiyatga molik.

Neoplatonizmning yagona Xudodan borliq, dunyoviy ruh va tabiatning nurlanib chiqishiga asoslangan emanatsiya jarayoni tasavvufda keng yoritilgan. Tajalli tushunchasi aksidensiya tushunchasi bilan qadimgi yunon, hind va xitoy falsafasida mavjudotning bosh asosini ifodalovchi substansiya ma'nosini anglatadi. Arastu ta'limoticha, substansiya barcha narsalarning haqiqiy asosidir. Birinchi mohiyat o'zgaras va doimiydir. Tajalli tushunchasini dastlab basralik zohid Raboh ibn Amr al-Qaysiy (796 y. v.e.) kiritgan. Mashhur so'fiy Saxl at-Tustariy (896 y. v.e.) tajallining uch turini farqlagan: a) ilohiy mohiyatning namoyon bo'lishi (tajalli az-zot), yoki ilohiy vahiy (mukashafa); b) ilohiy mohiyatning o'z sifatlarida namoyon bo'lishi (tajalli sifat az-zot), yoki nur taratish (maudian nur); v) ilohiy hukmning namoyon bo'lishi (tajalli hukm az-zot), yoki kelajak hayot (al-axira va ma fiha). Abu Bakr Kalobodiy ham o'zining «at-Ta'rrof» asarida tajalliyni uch qismga bo'lgan. 1. Zotning tajalliysi – bu substansiyaning namoyon bo'lishi emas, balki mukoshafat – insonlik (istitor) pardasining ko'tarilishidir. 2. Zot sifatlarining tajalliysi – nur berilishi. Kishiga Zotning qudrati ayon bo'lib, Haqni tanish g'oyasi sifatida talqin qilingan. 3. Zot hukmining tajalliysi – oxiratda bo'ladi. Jannatiylar jannatga, do'zaxiylar do'zaxga ravona bo'ladi.

Tajalliy konsepsiyasi Mansur al-Halloj qarashlarida panteistik ruxda – “Vahdat ul-mavjud” ta'limoti sifatida namoyon bo'lganligi kuzatiladi. U “Mavjudot birligi” haqidagi tushuncha bo'lib, unda Xudo moddiy olamni yaratib, o'zi ham unga singib ketgan, deb tabiatni ilohiylashtirishga qaratilgan ta'limotdir. Olloh doimo insonlarga narsa va atrofdagi hodisalar ko'rinishida namoyon bo'ladi (tajalli), lekin Uni faqat ozgina mumtoz insonlarga tanishlari mumkin.

Bundan tashqari, neoplatonizm ta'limotida barcha ruhlar yagona oliy ruhdan paydo bo'lgan, degan qarash mavjud bo'lib, inson ruhi oliy ruhga qaytishi uchun moddiy manfaatlardan voz kechib, axloqiy hayotni takomillashtirishi lozim. Uning eng yuqori cho'qqisiga ekstaz holatida erishish mumkinligini ta'kidlagan. Ekstaz (sukr, vajd) holati orqali Olloh bilan birlashish g'oyasi tasavvufning ba'zi yo'nalishlarida uchraydi. Masalan, Boyazid Bistomiy va Mansur al-Hallojlarning faoliyatida ko'zga tashlanadi. Lekin ko'pgina tasavvuf yo'nalishlari sukr g'oyasini ma'qullamagan va unga qarshi sahvi (Junayd Bog'dodiy) g'oyasini ishlab chiqqan.

Xulosa. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tasavvufiy-diniy qarashlarida axloqiy fazilat haqidagi g'oyalar ustuvorlik qiladi. Ba'zi tadqiqotchilar buni yunon falsafasining ta'sirida, ayniqsa, ko'p jihatdan moshoiyun (peripatetizm) oqimi tufayli shakllangan, deb biladilar. Ammo keyingi davr tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, faqat arastuchilik emas, balki ravoqiylarning[11] falsafiy merosi ham Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodiga samarali ta'sir o'tkazgan.

Ta'kidlash lozimki, ravoqiylik epikurchilik[12] bilan ayni bir zamonda paydo bo'lib, bahslar tufayli rivojlangan bo'lsa ham, tashqi jihatdan qaraganda, axloqiy talabdan kelib chiqib, fazilatni (ezgulikni) tabiatda hukmron bo'lgan zaruriyat tushunchasi bilan bog'lagan. Ammo bu faqat shaklan shundaydir. Garchi ravoqiylar fazilatning umumiyliги haqida gapirsalar ham, haqiqiy axloqni burch axloqi hisoblaydilar. Ammo shunga qaramay ular tomonidan katta zavqu shavq bilan e'lon qilingan ravoqiylik fazilatidagi burch mazmun jihatdan ijtimoiylikdan ko'ra, tabiiylikka tortadi.

Insonning maqsadini tabiat va jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda salbiy tushunilgan ozodlikda ko'rgan epikurchilardan farqli o'laroq, ravoqiylik inson mavjudligining oliy ma'nosini tabiatga muvofiq keladigan hayotda ko'radi. Diogen Laertskiyning guvohlik berishicha, Zenon "Inson tabiati haqida" deb atalgan risolasida birinchi bo'lib, uning oxirgi maqsadi tabiat bilan muvofiqlikda yashashdir, deb aytgan[13]. Dunyodan qochish emas, balki, uni butunicha va to'laligicha qabul qilish kerak. Hech qanday holatda ham tabiatning qo'pol voqealaridan qutulib chiqishga harakat qilmaslik kerak. Shuning uchun oliy darajadagi donishmandlik shundaki, nafaqat jismoniy, balki ruhan ham to'laligicha tabiat zaruriyati tomon bormoq kerak. Ravoqiylar uchun orzudagi hayotga bo'lgan munosabat Suqrot siymosida o'z aksini topgan edi. U hamma narsadan o'zining ishonchini yuqori qo'yib, hayotning o'zi uning axloqiy mazmunidan ko'ra, qiyoslab bo'lmaydigan darajada past turishini ta'kidlagan edi. Ravoqiylar falsafasining islom falsafasiga kirib kelishi va keyinroq butun arab-musulmon falsafasiga ta'siri tasavvuf falsafasini ham chetlab o'tmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Trimingham, J. Spencer. The Sufi Orders in Islam. Oxford: Oxford University Press, 1971
2. Nasr, Seyyed Hossein. Islamic Philosophy from Its Origin to the Present. Albany: State University of New York Press, 2006.
3. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – Toshkent: "Akademnashr" 2020. – B.16-17.
4. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордени в исламе. – Москва: София. Д. Гелиос, 2002. – С. 27.
5. Биринжкар Р. Знакомство с исламскими науками: калам, фалсафа, ирфан: в 3 ч. / пер. с перс. С. Ходжаниёзова; предисл., коммент. и общ. ред. И.А. Таировой. – Москва: ООО «Садра» 2014. –С.205-206.
6. Аҳмад Муҳаммад Турсун. Абу Ҳомид Ғаззолий Ҳужжатул-ислом ва қалблар табиби. –Тошкент: "Qaqnus media" 2017. –Б.46.

7. Neoplatonchilar. Asoschisi Plotin (mil. 205-270). Platon va Aristotelning falsafiy qarashlarini davom ettirgan. Ularning fikricha, mavjudlikning asosini aqldan ustun turuvchi g'ayritabiiy, ilohiy tamoyil tashkil qiladi. Inson ruhi ilohiy ruhga qaytishi uchun moddiy manfaatlardan voz kechib, axloqiy xayot kechirishi lozim. Ular bunga ekstaz xolatida erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Bular asketizm g'oyalari bilan birga insonparvarlik qadriyatlarini ulug'lagan. Ular Xudoni yagona borliq bo'lib, undan bosqichma-bosqich aql, ruh keyin tabiat nurlanib chiqadi, degan emanatsiya jarayoni sifatida tasavvur qilgan.

8. <https://ahlisunna.uz/falsafa-va-mantiq/Фалсафа ва мантиқ фанининг ислом оламига кириб келиши>.31.12.2018

9. Macit Fahir. İslam felsefesi kelamı ve tasavvufuna kısa bir giriş. – Ankara: İnsan yayınlari, 1997. – S. 55.

10. Macit Fahir. İslam felsefesi kelamı ve tasavvufuna kısa bir giriş. – Ankara: İnsan yayınlari, 1997. –S. 75.

11. Mil.avv. IV asr oxirdagi yunon falsafiy ta'limoti. Ular axloqiy talabdan kelib chiqqan xolda tabiatga, logos (Xudo)ga muvofiq yashashga chaqirishgan. Ular falsafaning moddiy va ruhiy tamoyillarini tan olishgan. Ularning ta'limotiga ko'ra, logos butun tabiatga singib olamning hamma yerida mavjuddir.

12. Qadimgi yunon falsafasi. Asoschisi Epikur (m.avv 341-270). Ular olamni moddiy, abadiy va cheksiz deydi. Ularning falsafiy-axloqiy ta'limotiga ko'ra, ular rohat-farog'at, hursadchilik deganda, jismoniy va ruhiy tashvishlardan ozod bo'lishni tushunganlar.

13. Диоген Лаэртский.О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. Перевод с древнегреч. М.С.Гаспаров. –Москва: Мысль, 1986. – С. 273.<http://psylib.org.ua>.